

Huquqbuzarliklar Profilaktikasi Inspektorlarining Fuqarolarning O'zini O'zi Boshqarish Organlari Bilan Hamkorligi

Axmedov Islom Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasini boshlig'i
o'rinbosari, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni, mazkur yo'nalishda, ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasi profilaktika inspektorlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilik bilan hamkorligi, hamkorlikni samarali tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish yo'llari tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va amaliyot masalalariga asoslangan holda yozilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari, ularning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, uning ahamiyati, hamkorlik masalalari, uni samarali tashkil etish yo'llari.

Barchamizga ma'lumki, asrlar davomida shakllangan va ajdodlarimizni birlashtirgan mahalla tizimi hozirda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Aytish joizki bugungi kunda ham hayotimizni mahallasiz, shu maskanda istiqomat qilayotgan yaqin qo'shnilarisiz tasavvur qila olmaymiz. Chin insoniy fazilatlar sayqal topadigan mahallani tom maa'noda hamjihatlik maskani, deyish mumkin.

Mahallaning bugungi mas'uliyati uning hududidagi osoyishtalik bilan belgilanadi. Mahalla jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, sog'lom turmush tarzining qaror topishi, barkamol avlodni tarbiyalash, aholi bandligini ta'minlash kabi ishlarda katta hissa qo'shib kelmoqda.

O'zini o'zi boshqarishga xos ushbu noyob tizimning maqomi va huquqiy asoslari dastlab mamlakatimizning Bosh Qomusi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisini saylaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli" ekanliklari belgilab qo'yildi. Mazkur vakolat huquqbuzarliklar profilatkikasiga oid chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda fuqarolar yig'inlari faoliyati, ayniqsa o'zini o'zi boshqarish deb atalayotgan mahalla instituti kundan-kunga takomillashib bormoqda. Jumladan, o'tgan qisqa davrda aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha "mahalla sektor xalq qabulxonasi mahalla" tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli "ko'priq" bo'lishini amalda ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi

darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni bilan har bir mahallada "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etildi. Mazkur farmon bilan, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi. Ushbu vazirlikning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari aniq belgilab berildi.

Mazkur Farmon bilan, har bir mahallada uning kriminogen vaziyati va aholi sonidan kelib chiqqan holda kamida bir nafardan profilaktika inspektori xizmatni olib borishi belgilanib, fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini bajarish profilaktika katta inspektoriga, ushbu lavozim mavjud bo'lmagan taqdirda esa profilaktika inspektori zimmasiga yuklatildi.

Mahallalarni kriminogen vaziyatdan kelib chiqib toifalarga ajratishda foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Bosh prokuraturasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda har bir mahalla kesimidagi xonadonlar hamda ularda istiqomat qiluvchi aholi soni haqidagi ma'lumotni "Elektron jinoiy-huquqiy statistika" yagona axborot tizimiga integratsiya qilinishi yo'lga qo'yildi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ichki ishlar organlari jumladan, *profilaktika (katta) inspektorlari bilan hamkorlikda* quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

1) ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olish ishlarida ularga ko'maklashadi, «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshiradi;

2) xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib boradi, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etadi;

Jumladan, Yangi O'zbekistonda shaxs, inson qadri yuqori o'ringa qo'yilib, "inson jamiyat davlat" degan yangi tamoyil asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, amaliy natija, inson manfaati, uning qadr-qimmatini bosh maqsadga aylangan.

O'tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning "Temir daftari, Ayollar daftari, Yoshlar daftari" kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi.

3) aholini, shu jumladan, yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odat va an'analar bilan tanishtiradi va ularni targ'ib qiladi;

4) davlat hokimiyati organlariga millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlashga ko'maklashadi;

Ma'lumki, O'zbekiston ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat. Lekin bizning eng katta boyligimiz turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikni yanada mustahkamlashdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo'lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan jonajon O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgani ayniqsa quvonarlidir.

5) mahalladagi uyushmagan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

6) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga huquq-tartibotni mustahkamlashga ko'maklashadi;

7) qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- 8) «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishini ta'minlash choralari ko'radi;
- 9) hududlarda huquqbuzarliklar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar, yoshlar va ayollar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ta'sirchan ishlarni tashkil etadi;
- 10) ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan, shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy-mehnat reabilitatsiyasi va jinoyatchilikning oldini olishga doir tadbirlarni ijtimoiy moslashuv markazlari bilan birgalikda amalga oshiradi;
- 11) yetim bolalar, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organlariga taqdim etadi, shuningdek, bunday bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko'maklashadi;
- 12) «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhi faoliyati tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;
- 13) aholi, jumladan, yoshlar va xotin-qizlar bandligiga ko'maklashish, harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatilgan, jazoni ijro etuvchi muassasalardan ozod etilgan shaxslarni ishga joylashtirishga ko'maklashadi.

Zero, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jumladan huquqbuzarliklarning oldini olish, uning profilaktikasini samarali tashkil etish, jamiyatni qonun ustuvorligini ta'minlash faqat ichki ishlar organlari yoki huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi boshqa organlarning vazifasi emas, balki har bir fuqaroning, mahallaning, jamoatchilikning ham muhim vazifasiga aylanishi zarur. Holbuki, jamiyatda tinch va farovon yashash uchun jinoyatchilikka qarshi kurash va ularning oldini olishda barcha birdek mas'uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T: O'zbekiston, 2023. 76.
2. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.I. T: O'zbekiston NMIU, 2018. B. 507.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son qarori;
6. Ekstremizm va terrorizm taraqqiyot dushmani. Ichki ishlar tizimi xodimlari (profilaktika inspektorlari) uchun o'quv-amaliy qo'llanma. O'quv-amaliy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. 164 b.
7. Ichki ishlar organlari tizimidagi tub islohotlar xalq manfaatlariga xizmat qilishni ta'minlash kafolati. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020., 331 b.
8. Barkamol avlodni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Toshkent, 2010. 432 b.
9. Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. 116 b.
10. Ma'naviyatimizga tahdid kelajakka tahdid. Ilmiy-maqolalar to'plami. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi respublika ma'naviyat targ'ibot markazi. Toshkent, 2011. 199-b.